UDK: 159.9:373.5

MAKTAB AMALIYOTCHI PSIXOLOGLARI FAOLIYATIDA PROYEKTIV METODIKALARDAN FOYDALANISH

Mirzayev Olim Safarovich,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti “Psixologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchining nafaqat akademik o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini, balki uning individual-psixologik xususiyatlari, emotsional holati, ijtimoiy munosabatlari va shaxsiy rivojlanish dinamikasini o‘rganish dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonda maktab amaliyotchi psixologining diagnostik faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi.

Maktab amaliyotchi psixologi o‘quvchining psixologik holatini o‘rganish, ta’lim jarayonidagi muammolarni aniqlash, sust o‘zlashtirish va uning kelib chiqish omillarini tushunish hamda o‘quvchilarga tegishli psixologik yordam ko‘rsatishda turli psixodiagnostik metodlardan foydalanadi. Psixodiagnostik amaliyotda standartlashtirilgan shaxs so‘rovnomalari, testlar, suhbat, kuzatish, faoliyat mahsulini tahlil qilish, biografik metod hamda proyektiv metodikalar muhim o‘rin egallaydi.

Ayniqsa, bolalar va o‘smirlar bilan ishlashda rasm chizishga asoslangan proyektiv metodikalar o‘quvchi uchun nisbatan tabiiy va qiziqarli diagnostik vaziyatni yaratishi bilan ahamiyatlidir. Proyektiv metodikalar shaxsning ichki psixologik mazmunini bilvosita o‘rganishga qaratilgan psixodiagnostik vositalar hisoblanadi. Ularda tadqiq etiluvchiga muayyan darajada noaniq yoki turlicha talqin qilinishi mumkin bo‘lgan stimul, topshiriq, obraz yoki vaziyat taqdim etiladi. Shaxs esa mazkur materialga o‘zining individual tajribasi, munosabati, ehtiyoji va kechinmalari asosida javob beradi.

Ukrain psixologi L. F. Burlachukning fikricha, proyektiv metodikalarning amaliyotdagi muhim jihati shundaki, respondentlarning javobi faqat tayyor variantlardan birini tanlash bilan cheklanmaydi [1, 78]. Proyektiv metodikalar shaxsning psixologik xususiyatlarini o‘rganishda, boshqa testlar uchun qo‘shimcha diagnostik ma’lumot manbai sifatida xizmat qilishi mumkin. Maktab amaliyotida, ayniqsa, rasmli proyektiv metodikalardan foydalanish qulay va samarali usullardan biri hisoblanadi. Rasm chizish jarayoni o‘quvchining ichki tajribalarini bilvosita ifodalashi uchun psixologik imkoniyat yaratadi.

Maktab psixologi proyektiv metodikalardan o‘quvchining individual-psixologik xususiyatlarini kompleks o‘rganish jarayonida foydalanishi mumkin. Psixolog D. Ya. Raygorodskiyning fikriga ko‘ra, proyektiv metodikalar orqali o‘quvchining emotsional holati, o‘zini idrok qilishi va o‘z-o‘ziga munosabati, oilaviy munosabatlar tizimi, tengdoshlari bilan munosabatlari, xavfsizlik va himoya hissi, shaxslararo

munosabatlardagi qiyinchiliklari, ichki kechinmalari va emotsional zo‘riqish belgilari, ijtimoiy muhitni idrok etish xususiyatlari, shaxsiy chegaralarni his qilish ko‘nikmalari hamda ijodiy tasavvuri va obrazli tafakkuri haqida qo‘shimcha ma’lumot olish mumkin [2, 300].

Mazkur yo‘nalishlar amaliyotchi psixologga o‘quvchining psixologik holati haqida dastlabki tasavvur hosil qilish va keyingi psixodiagnostik ishlarni istiqbolli rejalashtirish imkonini beradi. Biroq proyektiv metodikalar natijalarini sharhlashda ehtiyotkorlik va kasbiy kompetentlik talab etiladi. Olingan natijalar o‘quvchining shaxsiyati yoki psixologik holati haqida yakuniy xulosa sifatida emas, balki kompleks diagnostikaning bir qismi sifatida qaralishi lozim.

Maktab psixologik amaliyotida keng qo‘llanishi mumkin bo‘lgan proyektiv metodikalardan biri “Uy-Daraxt-Odam” metodikasidir. Psixolog olim A. L. Vengerning fikricha, mazkur metodikada tadqiq etiluvchining uy, daraxt va odam obrazlarini tasvirlashi hamda ushbu obrazlarga bergan mazmuni tahlil qilinadi [3, 76]. Metodika orqali o‘quvchining o‘ziga va atrof-muhitga munosabati haqida qo‘shimcha diagnostik ma’lumot olish imkoniyati mavjud.

Shuningdek, “Oila rasmi” proyektiv metodikasi bolaning oila a’zolari bilan munosabatlarini hamda oilaviy muhitni subyektiv idrok etish xususiyatlarini o‘rganishda qo‘llanilishi mumkin. Bunda rasmning o‘zi bilan bir qatorda bolaning rasm chizish jarayonidagi xatti-harakatlari, izohlari va rasmdan keyingi suhbatda bildirgan fikrlari ham inobatga olinadi.

“Mavjud bo‘lmagan hayvon” kabi rasmli metodikalar esa shaxsning obrazli tasavvuri, individual xususiyatlari va o‘ziga xos psixologik reaksiyalarini o‘rganishda qo‘shimcha diagnostik manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bunday metodikalardan foydalanishda bolaning yosh xususiyatlari, rasm chizish qobiliyati, topshiriqni tushunishi va diagnostik vaziyatdagi emotsional holatini hisobga olish zarur.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, rasmdagi alohida bir belgiga qarab o‘quvchining shaxsiy xususiyati yoki psixologik holati haqida qat’iy xulosa chiqarish ilmiy jihatdan asosli emas. Proyektiv metodikalar natijalarini birlamchi diagnostik ma’lumot sifatida qabul qilish va ularni boshqa psixodiagnostik vositalar yordamida tekshirish maqsadga muvofiqdir. Tadqiqotchi N. A. Korniyenkoning ta’kidlashicha, proyektiv metodikalar natijalari suhbat, kuzatish, testlar va boshqa shaxs so‘rovnomalari kabi diagnostik vositalar orqali kompleks tahlil qilinishi lozim [4, 353].

Demak, maktab ta’limi amaliyotida proyektiv metodikalardan foydalanish, avvalo, amaliyotchi psixologdan yuqori darajadagi kasbiy mas’uliyat, maxsus tayyorgarlik va diagnostik natijalarni to‘g‘ri talqin qilish ko‘nikmasini talab etadi. Proyektiv metodikalar o‘quvchining ichki kechinmalari, emotsional holati va shaxslararo munosabatlari haqida qo‘shimcha ma’lumot olish imkonini berishi bilan maktab psixologining diagnostik faoliyatini boyitadi.

Umuman olganda, maktab amaliyotchi psixologi faoliyatida proyektiv metodikalardan oqilona va kompleks foydalanish o‘quvchilarning individual-

psixologik xususiyatlarini chuqurroq o‘rganish, mavjud psixologik muammolarni aniqlash hamda ularga ko‘rsatiladigan psixologik yordam yo‘nalishlarini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бурлачук Л. Ф. Введение в проективную психодиагностику. — Киев: Ника-центр; Вист-С, 1997. — 128 с.
2. Райгородский Д. Я. Практическая психодиагностика. Методики и тесты: учеб. пособие. — Самара: ИД «БАХРАХ-М», 2007. — 672 с.
3. Венгер А. Л. Психологические рисуночные тесты: иллюстрированное руководство. — М.: ВЛАДОС-ПРЕСС, 2003. — 160 с.
4. Корниенко Н. А. Проективная психология типологии личности // Профессиональное образование в современном мире. — 2023. — Т. 13, № 2. — С. 353–376.